



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDAGI 5-6 SINIF JISMONIY TARBIYA DARSLARINI SIFAT- SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Tangirov Davlat Tug'ilovich

Samarqand iqtisodiyot va servis inistituti assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15684589>

ARTICLE INFO

Received: 01st June 2025

Accepted: 05th June 2025

Published: 17th June 2025

KEYWORDS

sog'lom avlod, pedagogik kuzatuv, qonuniyatlar, sport turlari, komil inson, jismoniy mashqlar.

ABSTRACT

Jismoniy tarbiya darslarida sport mashg'ulotlarini o'rgatish jarayoni ham amaliy, ham nazariy bilimlarni zamon talabi darajasida ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanib, chambarchas bog'lab olib borish ijtimoiy pedagogik jarayon sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning bilan bir qatorda jismoniy tarbiya darslarini, sport to'garaklari, mashg'ulotlar jarayonida o'quvchi yoshlarni keng jalb etishda ularni jismoniy madaniyat ta'lim tarbiyasini maqsad mohiyatini chuqur singdirish masalasini hal etish muhim ahamiyatga egadir.

Jismoniy madaniyat ta'limining maqsadi barcha turdagi maktablar, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, maktabgacha tarbiya va maktabdan tashqari tarbiya muassasalarida ishlaydigan o'qituvchilar, pedegogik xodimlar, ota-onalarni shuningdek, mexnat va oilaviy faoliyati jarayonida odamlar bilan muloqotda bo'ladigan barcha kasb egalari, barcha kishilarni pedegogik bilimi, ko'nikma malaka va komil insonni shakllantirish, qonuniyatlari, ta'limning tamoillari mazmuni shakli va usullari bilan qurollantirishdan iborat.

"Sog'lom avlod" davlat dasturi, "Davlat ta'lim standartlari", "Jismoniy tarbiya" dasturi asosida umumiy jismoniy tayyorgarliklarni ta'minlash va ayniqsa yoshlarni sport turlari bilan shug'ulantirish asosida ularni sport mahoratlarini oshirishga davat etilgan. Ularning asisiy maqsadi- va vazifalari esa ko'p bosqichli uzluksiz sport musobaqalarining daslabki ko'rinishi sifatida: "Umid nihollari" sport musobaqalari, "Alpomish va Barchinoy" maxsus testlari bo'yicha o'tkaziladigan ommaviy sport tadbirlarida o'z kuch qudratlarini sinab ko'rishga qaratilganligi bilan e'tiborga molikdir.

Pedagogik kuzatish natijalariga ko'ra ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kunda Respublikamizda 5-6-sinf o'quvchi-yoshlarini jismoniy madaniyat tarbiyasi uchun yaratilgan ulkan imkoniyatlarga qaramasdan, o'quvchilar o'rtasida jismoniy madaniyatning ijtimoiy ahamiyatini tushunish, undan sog'lom turmush tarzini kechirishda foydalanish, vositalarini tanlash, mustaqil shug'ullanish, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi, jismoniy mashqlarning inson organizmini asosiy, hayotiy tizimlarga ijobiy ta'sirini bilish va boshqa masalalar bo'yicha bilimlari va tushunchalari talab darajasida emas, shuningdek jismoniy madaniyatning tarbiyaviy masalalariga ham etibor berilmayapti.

Umum ta'lim maktablarning 5-6 sinf o'quvchilarini jismoniy madaniyat darslarini yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'tkazish. Dars sifat-samaradorligini oshirish, ishning vazifalariga mavzuga mos adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish ilg'or pedagogik tajribalarini o'rganish va pedagogik kuzatishlar olib boorish; Umum ta'lim maktablarida darslarini sifat-samaradorli oshirish vosita va omillardan iborat ishlarni amalga oshirish hozirgi kun talabi bo'lib qoladi.

Bu muammolar quyidagicha izohlanadi:

Jismoniy madaniyat o'qituvchilari dars jarayonini talab darajasida tashkil etaolmasligi (etmasligi);

O'quvchilar orasida ommaviy sport musobaqalarni kam o'tkazilishi;

Darsdan tashqari vaqtlarda mashg'ulotlarni o'tkazilishi faqat rejada qolib ketishi;

Jismoniy madaniyat o'qituvchilarini nazariy va amaliy bilimlari talab darajasida emasligi va boshqalar.

Kuzatish va so'rovlar natijasida quyidagi tafsiyalarni tag'dim etamiz.

Birinchiidan—jismoniy madaniyat xodimlarini tayyorlash jaxon andozalari darajasida tayorlashni tashkil etish lozim.

Ikkinchiidan—ota-onalar bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanadigan jamoat tashkilotlari xodimlari orasida jismoniy madaniyat bilimlarini keng targ'ib etish.

Uchinchiidan—oilaviy hayotda, ishlab chiqarish faoliyatida, mehnatkashlar bilan muloqotda bo'ladigan kasb egalarini tayyorlashda o'quv tarbiya jarayonini jismoniy madaniyatga doir bilimlarni berish bilan boyitish.

Xulosa qilib aytganda, bugungi umum ta'lim tizimidagi jismoniy madaniyat ta'limini, yanada takomillashtirish, ularni sifat-samaradorligini oshirishda jismoniy madaniyat o'qituvchisining o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, umumta'lim maktab 5-6 sinf o'quvchilarini jismoniy madaniyat darslarini, samarali tashkillashtirish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik. 3-to'plam nashri. Farg'ona, 2021.
2. Xankeldiyev SH.X, Abdullayev A. va boshqalar. Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati. O'quv qo'llanma. Farg'ona, 2010-228 b.
3. Abdullayev A. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Xankeldiyev SH.X. Tahriri ostida. Darslik. 2-to'ldirilgan nashri. T.: "Navruz" nashryoti, 2019. - 416 bet
4. Бишаева А.А. Профессионального-оздоровительная физическая культура студента: учебное пособие. /А.А.Бишаева. - М.: КНОРУС, 2013.-304 с.
5. Кузнетсов В.С. Коррекция состояние здоровье школьников средствами физической культуры. - М.: 2012.